

**“Yilning eng yaxshi xodimi” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibi
to‘g‘risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom Transport nazorati inspeksiyasi (keyingi o‘rinlarda – inspeksiya) tarkibiy va hududiy bo‘linmalarida “Yilning eng yaxshi xodimi” tanlovi (keyingi o‘rinlarda – tanlov)ni tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.
2. Tanlov inspeksiyaning markaziy apparati va hududiy bo‘linmalari o‘rtasida o‘tkaziladi.
3. Tanlovga doir chora-tadbirlarning umumiy ijrosi Inspeksiya Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

2-bob. Tanlovning maqsadi

4. Tanlovning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:
Inspeksiya xodimlari ongi va qalbida vatanparvarlik va yurt taqdiriga daxldorlik hamda lavozim yo‘riqnomasidagi vazifalarni vijdonan bajarishda mas‘uliyatni kuchaytirish;
Inspeksiya markaziy apparati va hududiy bo‘linmalarida ishlar samaradorligini yanada oshirish;
xodimlar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, qonuniylik va mehnat intizomini mustahkamlash;
xodimlarning intellektual va professional salohiyatini oshirish hamda bu boradagi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, xodimlarda tashabbuskorlik va yetakchilik fazilatlarini rivojlantirish;
yuksak bilimli va professional kasb mahoratiga ega bo‘lgan iste’dodli kadrlarni aniqlash hamda rahbarlik lavozimlariga tayinlash maqsadida kadrlar zaxirasini shakllantirish.

3-bob. Tanlovda ishtirok etish tartibi

5. Tanlovda Inspeksiyaning markaziy apparati va hududiy bo‘linmalarida faoliyat olib borayotgan xodimlar ishtirok etadi.
6. Tanlov tasdiqlangan komissiya tomonidan mazkur Nizom talablariga muvofiq mustaqil ravishda o‘tkaziladi.
7. Tanlov qo‘shimcha ravishda ommaviy axborot vositalari kuzatuv bilan o‘tkazilishi mumkin, oshkoralik, ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga amal qilgan holda amalga oshiriladi.
8. Quyidagi xodimlar tanlovda qatnashishi mumkin emas:
Inspeksiya markaziy apparati va hududiy bo‘linmalarining barcha darajadagi rahbar xodimlari;

shuningdek, komissiya tarkibiga kiritilgan, savollarni tuzishga mas'ul shaxslar hamda tanlovni o'tkazishga bevosita daxldor bo'lgan xodimlar.

4-bob. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish tartibi

9. Tanlovni o'tkazish bo'yicha har yili noyabr oyida Inspeksiyaning rasmiy veb-saytida e'lon beriladi.

10. Tanlov quyidagi bosqichlarda o'tkaziladi:

hududiy saralash bosqichi – may oyida Inspeksiya markaziy apparati va uning hududiy bo'linmalari xodimlari o'rtasida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida;

respublika bosqichi – iyun oyining birinchi o'n kunligida hududiy saralash bosqichida g'olib bo'lgan xodimlar o'rtasida.

11. Tanlovning birinchi bosqichida ishtirok etmasdan keyingi bosqichda ishtirok etishga yo'l qo'yilmaydi.

5-bob. Tanlov komissiyasini tashkil etish tartibi

12. Tanlovning hududiy saralash bosqichini o'tkazish uchun har yili may oyida tegishli sohaviy yo'nalishlari bo'yicha (Avtomobil va suv transportida nazorat, Yo'l-qurilish ishlarini nazorat qilish va Temir-yo'l transporti va metropolitenda nazorat) hududda umumiy bitta hududiy komissiyalar tashkil etiladi.

Hududiy komissiyalar tarkibi Inspeksiya markaziy apparati komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

13. Tanlovning yakuniy bosqichini o'tkazish uchun Inspeksiyaning markaziy apparati va tegishli sohaviy yo'nalishlari rahbarlari tarkibidan iborat komissiya tashkil etiladi.

14. Komissiya tanlovni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq jarayonlarni amalga oshiradi.

6-bob. Tanlov shartlari

15. Tanlov quyidagi shartlar asosida o'tkaziladi:

a) ishtirokchilarning ish faoliyatini baholashga qaratilgan mezonlar;

lavozim yo'riqnomasi talablarini vijdonan bajarilganligi (*mehnat intizomi va qonuniylikka rioya qilish ahvoli, malaka darajasi ko'rsatkichlari, unga nisbatan murojaatning kelib tushganligi, ma'lumot tartibida*);

yuklatilgan vazifalarni (*xavf tahlilini aniqlash, tekshiruvlar, aniqlangan kamchiliklarga ma'muriy bayonnomalar tuzish*) bajarilish holati;

transport sohasini rivojlantirish doirasida loyihalari (*prezintatsiya shaklida*).

b) ishtirokchilarning bilim darajasini aniqlashga qaratilgan sinovlar (*test va savol-javob*);

davlat boshqaruvi (*og'zaki*);

kompyuter savodxonligi;

sohaviy yo'nalishga tegishli bo'lgan Qonun, Farmon va Qarorlarni o'zlashtirib olganligi (*test*);

mutoala qilingan badiiy adabiyotlar mazmuni (ogʻzaki);
v) ishtirokchilarning jismoniy va jangovar tayyorgarlik darajasini aniqlashga qaratilgan sinovlar (nogironligi boʻlganlar bundan mustasno):

toʻsinda tortilish;

100 metrغا yugurish;

1000 metrغا yugurish.

g) ishtirokchilar bilan yakka tartibdagi suhbat (*ogʻzaki*).

16. Tanlovning hududiy saralash va respublika bosqichlari ishtirokchilarining sinov natijalari 100 ballik mezon asosida tegishli komissiyalar tomonidan baholanadi.

17. Tanlov ishtirokchilari oʻzaro teng huquqli boʻlib, ustunlik yoki imtiyozlar belgilanishiga yoʻl qoʻyilmaydi.

18. Ishtirokchilarning toʻplagan yakuniy ballari teng boʻlgan hollarda yakka tartibdagi suhbat natijalari boʻyicha yuqori koʻrsatkichga ega boʻlgan ishtirokchi ustunlikka ega boʻladi.

7-bob. Tanlovning gʻolib va sovrindorlarini taqdirlash

18. Tanlov gʻoliblarini taqdirlash, tashkiliy chora-tadbirlarni moliyalashtirish Transport vazirligining budjetdan tashqari mablagʻlari hisobidan amalga oshiriladi.

19. Tanlovning gʻolib va sovrindorlari quyidagi tartibda taqdirlanadi:

1-oʻrin uchun – I darajali diplom va oylik pul taʼminotining 200 foizi miqdorida;

2-oʻrin uchun – II darajali diplom va oylik pul taʼminotining 150 foizi miqdorida;

3-oʻrin uchun – III darajali diplom va oylik pul taʼminotining 100 foizi miqdorida.

20. Tanlovning gʻolib hamda sovrindorlariga diplom, pul mukofotlari va boshqa qimmatbaho sovgʻalar bu yil (2025 yil) yil yakuni bilan oʻtkaziladigan hisobot yigʻilishida keyingi yildan boshlab **14 iyun – “Maʼmuriy islohotlar doirasida transport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmonning imzolangan kuni** munosabati bilan oʻtkaziladigan tadbirda tantanali ravishda topshiriladi.